



KANDAKORLIK SAN'ATINING MINTAQAVIY MAKtablARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Davronova Go'zalxon Davlat qizi,

Guliston davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Mirzakulov Islomjon Xoljigitovich,

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

e-mail: islommirzaqulov42@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi kandakorlik san'atining tarixiy taraqqiyoti, ayniqsa, Buxoro, Xiva, Qo'qon va Toshkentdagi mintaqaviy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi hamda ularning o'ziga xos badiiy-texnik uslublari tahlil qilinadi. Har bir maktabning milliy an'analarni saqlab qolgan holda yangi ifoda vositalarini joriy etishdagi hissasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: kandakorlik, metall o'ymakorligi, Buxoro maktabi, Xiva maktabi, Qo'qon maktabi, Toshkent maktabi, bezak san'ati, hunarmandchilik.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati tizimida kandakorlik alohida o'rinn egallaydi. Metallga naqsh berish san'ati qadim zamonlardan buyon o'zining nafisligi, texnik murakkabligi va estetik yuksakligi bilan ajralib turgan. Bu san'at turi ko'p asrlar davomida turli tarixiy-madaniy sharoitlarda taraqqiy etib, o'ziga xos maktablarni shakllantirgan.

Buxoro kandakorlik maktabi. Buxoro kandakorlik maktabi o'zining mukammal simmetriyasi, kompozitsion uyg'unligi va chuqur ramziy ma'noga ega bezaklari bilan ajralib turadi. Mahalliy ustalar asosan mis, jez va kumush kabi metallar bilan ishlagan bo'lib, ularning ijod mahsullari "islimiyl", "girih" va "hatomiy" kabi an'anaviy naqshlar bilan bezatilgan. Bu naqshlar zardo'zlik, ganch o'ymakorligi va yog'ochga ishlov berish san'atidagi motivlar bilan uyg'unlikda rivojlangan. Buxorolik kandakorlar yaratgan sharbatqandlik idishlari, oftobalar, laganlar hamda eshik va panjara bezaklari bu maktabning eng yorqin namunalari sirasiga kiradi.



Ushbu maktabda ustalarning mahorati nafaqat texnik jihatdan, balki estetik tamoyillarni chuqr tushungan holda yasalgan buyumlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, naqshlarning har bir elementi o‘ziga xos ramziy ma’noga ega bo‘lib, ular diniy, falsafiy va madaniy qarashlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Buxoro kandakorlik maktabining rivojlanishida bir necha mashhur ustalar muhim rol o‘ynagan. Ulardan biri XIX asrda faoliyat yuritgan usta Shirinmurod bo‘lib, u eshik, ravoq va mehroblar uchun bezakli metall panjaralar yasashda yetuk mahorat ko‘rsatgan. Uning ishlari nafislik va mukammal naqsh tuzilmalari bilan ajralib turgan. Shuningdek, Buxoroda faoliyat ko‘rsatgan usta Jo‘raboy Xalfa kabi san’atkorlar o‘z ijodida mahalliy an’analarni davom ettiribgina qolmay, ularga yangi shakl va mazmun baxsh etganlar.

Buxoro maktabi ustalari nafaqat saroy va masjidlar uchun, balki kundalik hayotda ishlataladigan buyumlar – choynaklar, laganlar, idish-tovoqlar, hatto qurol-yarog‘ va zargarlik buyumlari uchun ham nafis bezaklar ishlaganlar. Bu esa kandakorlik san’atining Buxoro madaniy hayotida keng o‘rin egallaganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ham Buxoro kandakorlik maktabining an’analari davom ettirilmoqda. Zamonaviy ustalar qadimiy uslublarni saqlagan holda, yangi shakl va g‘oyalar bilan boyitilgan asarlar yaratmoqdalar. Bu matabning barhayotligi uning chuqr ildizlari va estetik kuchida namoyon bo‘ladi.

Xiva kandakorlik maktabi. Xiva maktabi o‘zining rang-barangligi, keng hajmli yirik naqshlari va dekorativ ifoda vositalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mahalliy ustalar asosan jez, temir va ba’zan kumush ustida ishlaganlar. Xivada xalqona uslubdagi naqshlar keng qo‘llanilib, hayvonot olami obrazlari, afsonaviy mavjudotlar va stilizatsiyalashgan o‘simgansimon shakllar san’atda muhim o‘rin egallagan. Ustalar o‘z asarlarida mahalliy urf-odatlar, e’tiqodlar va tabiat manzaralaridan ilhom olganlar.

Xiva kandakorlik matabida jamoaviy mehnat an’anasi chuqr ildiz otgan bo‘lib, ayniqsa me’moriy obidalar – masjidlar, madrasalar, maqbaralar va saroy darvozalarining metall bezaklari ko‘pincha bir necha ustaning hamkorligida yaratilgan. Katta eshiklar, darvozalar, ravoq va panjara elementlari murakkab kompozitsion yechimlar asosida bezatilgan.



Ushbu maktabning rivojida taniqli ustalar – usta Turg‘unboy, usta Abdurahmon va boshqalar muhim rol o‘ynagan. Ular o‘z asarlarida nafaqat Xiva hududiga xos uslublarni davom ettirgan, balki ularni boyitib, yangi bezak texnikalarini joriy qilganlar.

Zamonaviy davrda ham Xiva kandakorlik an’analari davom ettirilmoqda. Bugungi usta hunarmandlar qadimiylar naqsh turlarini yangicha materiallar bilan uyg‘unlashtirib, xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilayotgan san’at asarlarini yaratmoqdalar. Bu maktabning tarixiy merosi O‘zbekistonning nodir madaniy boyligi sifatida qadrlanadi.

Qo‘qon kandakorlik maktabi. Qo‘qon kandakorlik maktabi o‘ziga xos nozik va murakkab geometrik naqshlari, silliq va izchil to‘qimalari hamda tafsilotlarning aniqligi bilan ajralib turadi. Bu maktab estetik go‘zallik va amaliylik uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratganligi bilan diqqatga sazovor. Qo‘qonlik ustalar ko‘pincha maishiy buyumlar – choynak, patnis, idish, qo‘l oynasi va xushbo‘y tutatkichlar – ustida ishlashgan. Ularning asarlarida bezak bilan funksionallik uyg‘unlashgan bo‘lib, kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar ham san’at darajasiga ko‘tarilgan.

Qo‘qon ustalari mis, jez va kumush kabi metallar ustida mahorat bilan ishlaganlar. Ba’zan yuqori tabaqaga mansub mijozlar buyurtmasi asosida oltin qoplamlari ishlanmalar ham tayyorlangan. Kandakorlikda “girih”, “shamsa”, “islimi” kabi murakkab naqshlar bilan bir qatorda, Qo‘qon maktabiga xos bo‘lgan yirik markaziy motiflar va periferik geometrik elementlar qo‘llanilgan. Ustalar har bir detalni nafislik bilan bajarib, har bir buyumni betakror san’at asariga aylantira olishgan.

Qo‘qon maktabining rivojida yirik hunarmandlik markazlarining mavjudligi, shahar hunar maktablarining faoliyati va zargarlik bilan bog‘liq an’analalar muhim rol o‘ynagan. XIX asrda bu maktabning yuksalishida usta Qo‘chqor, usta Sattor kabi san’atkorlarning hissasi katta bo‘lgan.



Hozirgi kunda ham Qo‘qon kandakorlik an’analari davom ettirilmoqda. Zamonaviy ustalar qadimiy uslublarni saqlagan holda yangi shakllar, zamonaviy texnikalar va kreativ yondashuvlarni joriy etmoqdalar. Bu maktab nafaqat tarixiy meros, balki hozirgi hunarmandchilik rivojida muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Markaziy Osiyoning boy hunarmandchilik an’analarini aks ettiruvchi Buxoro, Xiva va Qo‘qon kandakorlik maktablari o‘zaro farqli bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiyl xususiyatlар mavjud. Avvalo, ushbu maktablarning barchasida bezak san’atining yuksak estetik mezonlari, murakkab kompozitsiyalar va ramziy ma’noga ega naqshlar asosiy o‘rin egallaydi. “Islimiyl”, “girih”, “shamsa” kabi an’anaviy naqshlar uchala maktabda ham keng qo‘llanilib, har birida o‘ziga xos talqinda namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, kandakorlik buyumlari nafaqat bezak, balki amaliy funksiyaga ham ega bo‘lgan – choynaklar, laganlar, idishlar, eshik va panjara bezaklari bu san’atning kundalik hayot bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mis, jez, temir va kumush asosiy ishlov beriladigan metallar bo‘lib, ba’zi hollarda oltin qoplamlalar ham qo‘llanilgan. Bu maktablarning rivojida usta-shogird an’anasi, jamoaviy mehnat, mahalliy madaniy va diniy qadriyatlarning aks etishi muhim omillar bo‘lgan. Har bir maktab o‘z hududining madaniy muhitidan oziqlanib, o‘ziga xoslikni saqlagan holda umumiyl milliy uslubga hissa qo‘sghan. Bugungi kunda bu kandakorlik maktablari O‘zbekistonning milliy madaniy merosining ajralmas qismi sifatida nafaqat muzeylarda, balki zamonaviy hunarmandlar ijodida ham o‘z aksini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Bulatov. Rangshunoslik. T.: TDPU, 2007 y.
2. R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. T.: 2008 y.
3. R.Xudoyberganov. Rangshunoslik asoslari. T.: G‘.G‘ulom, 2006 y.
4. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
5. Tojikulovna, Ibodullayeva Zarifa, and Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. "AMALIY SAN’ATNING TARBIYAVIY AHAMIYATI." MODERN PROBLEMS



IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS 1.6 (2025): 135-137.

6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan pedagogik tadqiqotlarda tarbiyaviy foydalanish muammosining talqini". *Favqulodda: Ta'limgagi kashfiyotlar va umrbod ta'lim jurnali (EJEDL)* 3.1 (2024): 9-9.
7. Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.2 (2024).
8. Kazakbayevich K. E., Baxromjon o'g'li AB FARG 'ONA VODIYSI KULOLCHILIGI AN'ANALARI //YANGILIK TADQIQOTLARNING NAZARIYASI VA ANALITIK ASPEKTLARI. – 2025. – V. 3. – No 35. – B. 94-101.
9. Xoljigitovich, M. I. (2025). INTERYERDA KOSHINLI BEZAK TURLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *MASTERS*, 3(3), 41-46.